



ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ
THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT
TADQIQOT VA TARAQQIYOT JURNALI

ISSN: 3030-3281. Volume II, Issue-5, (May) 2025
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

TOXIROVA Dilshoda Inom qizi
Fan va texnologiyalar universiteti
“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi
2 bosqich talabasi

**ZAMONAVIY JAMIYATDA KORRUPSIYAGA
QARSHI KURASHISH**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazariy bilimlari, normativ-huquqiy hujjatlarning normalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, “halollik vaktsinasi” tamoyili asosida korruptsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv kurslarida foydalanish imkonini beradi. Tadqiqot davomida korruptsiya tushunchasi va korruptsiya harakatlarda javobgarlik masalasi, oliy ta‘lim tizimida korruptsiyaga qarshi kurash, oliy ta‘lim muassasalarida xodimlarning odob-axloq namunaviy qoidalari va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish korruptsiyaga qarshi kurashishning ta‘sirchan vositasi sifatida tahlil qilinib, mavzuga oid xulosa va takliflar keltirildi.

Kalit so‘zlar: korruptsiyaga, Korruptsiyaga qarshi kurashish, “halollik vaktsinasi”, manfaatlar to‘qnashuvi, odob-axloq qoidalari, korruptsiya harakatlari.

CORRUPTION IN MODERN SOCIETY FIGHT BACK

ANNOTATION

This article allows you to use theoretical knowledge on the Fight Against Corruption, the formation of skills for applying the norms of regulatory legal acts in practice, training courses organized on the principle of “integrity vaccine” on the basis of anti-corruption, conflict of interest and rules of etiquette. During the study, the concept of corruption and the issue of responsibility in corrupt actions, the fight against corruption in the higher education system, the Model Rules of employee etiquette and the Prevention of conflicts of interest in higher education institutions, the improvement of the public administration system are analyzed as an influential means of combating corruption, a thematic conclusion and suggestions were brought.

Keywords: Anti-Corruption, Anti-Corruption, “integrity vaccine”, conflict of interest, etiquette, corrupt actions.

«Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz» [2]

Sh.M.Mirziyoev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni [5] bilan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Kengashi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi kiritilgan. O‘z navbatida, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan Oliy sud va Sudyalar Oliy kengashi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik Memorandumlari imzolangan.

Hamkorlik samarasi sifatida Respublikada korrupsiyaga oid, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro imijiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalari doimiy tarzda kompleks tahlil qilib kelinmoqda. Bunda ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrda **"Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [6] PF-6127-son Farmoniga oid** sud tizimini malakali va halol pok kadrlar bilan to‘ldirish, har qanday ko‘rinishdagi korrupsiyaning oldini olish, sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirmoqda.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti *Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida* ta‘kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda.

Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi” Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyasi;
- 1999 yil 4 noyabrda “Korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyalari va boshqalar.

Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etilib, ularning faoliyatida ochiqlikni ta‘minlash hamda jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda.

Shunday ekan hozirgi kunda yangi o‘zbekistoni qurish yaratish uchun biz yoshlar uchun qilinadigan ishlarni qadriga yetishimiz va biz ham karupsiyaga qarshi kurashib biz yoshlar mutlaqo karupsiyaga qarshimiz diya olyapmizmi. Karupsiya o‘zi nima; halol ishlab topilgan pulni qandaydir ishimiz bitishi uchun qo‘shirnoq ichidagi ish bilarmonlaga berishmi yoki ish biloarmon bo‘lib olib oddiy odamlarga ishingiz tez bitadi diyishmi,aslida esa ikkisiham o‘zimiz bo‘lishimiz munkun. Hozirgi kunda dolzab bo‘lib borayotgan bu mavzu turlicha muhokamalarga aylanmoqda karupsiya yo‘qolsa nimalar bo‘ladi, qanday o‘zgarishlar yuz beradi.

Chekka qishloqlarda svet, gaz, toza ichimlik suvi tekis va ravon yollar bo‘ladi maktablarda zamonaviy jihozlar spot zalar bo‘ladi va cheka qishloq viloyatlarda tajribali mallakali ustozlar ishchilar do‘ktirlar hizmat ko‘rsata boshlaydilar shifo honalarda sifatli hizmat turlari oshadi. Hozir ham bularni yo‘q deb ayta olmaymiz lekin to‘la to‘kis hammasi shunday chiroyli deb ham ayta olmaymiz.

Davlatimizda karupsiyaga qarshi kurashish Natijasida 2023-yilda 1979 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazildi va ularda 571 ta korrupsiya omili aniqlanib, ularning bartaraf etilishi ta'minlandi. Bunday yakunga hursad bo'lish kerak lekin tangani ikkinchi tarafi bor barchamiz karupsiyaga qarshi kurashyapmizmi yoki faqat qog'ozlarda qolyaptimi. O'z kelajagimiz uchun qayg'uraylik bizning ortimizdagi yosh avlodlar toza qalb bilan o'zlariga ishonch bilan o'sishiga biz ham o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda eng muhim vazifalardan biri bu, jamiyat ongini tubdan o'zgartirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirishdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlatning muqaddas burchidir. Bu muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, aholining huquqiy madaniyatini tizimli ravishda oshirib borish, davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarining to'liq shaffofligiga erishish, shuningdek, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida doimiy ravishda maqsadli profilaktika ishlarini olib borish orqali erishiladi. Keyingi vaqtlarda respublikamizda nodavlat notijorat tashkilotlarining Korrupsiyaga qarshi kurashdagi o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda Korrupsiyaga qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamiyatning taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko'rsatilgan va boshqa ko'pgina davlatlardagidek O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga tergov qilish vakolatlarini berish va huquqni muhofaza qiluvchi organi tarkibiga kiritish, hozirgi davrda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib turibdi. Korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurashish dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda Korrupsiya inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradigan omildir.

Korrupsiya ko'lami iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida korrupsiyaning oldini olish bilan bog'liq holat izchil yaxshilanib borayotganligi xalqaro e'tirofga sabab bo'lmoqda. Buni bu boradagi xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rni yaxshilanib borayotganligidan ham ko'rish mumkin. Bunga mamlakatda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash siyosati muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida Farmonining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi [1]. Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jadal rivojlanib borayotgan ta'lim tizimi, ilm-fan va texno-logiyalar mutlaqo boshqacha mutaxassisni tayyorlashni davlat va jamiyat oldiga vazifa qilib qo'yimoqda. Bu esa dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh, intellektual salohiyati va professionallik darajasi yuqori mutaxassis kadrlarni tayyorlashni va ushbu mutaxassislar kasbiy mahoratidan tashqari xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishini talab qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va umuman ta'lim tizimiga e'tiborning kuchaytirilishi jamiyatimizning har bir fuqarosidan, ayniqsa, ta'lim va ilm-fanga mas'ullardan, bog'cha murabbiysidan tortib, maktabdagi muallimlar, oliy maktabdagi professor-o'qituvchilardan ijtimoiy ongi, tafakkuri yuqori, vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash masalasiga o'ta jiddiy yondashishni taqozo etadi [4].

Shuningdek, davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizasiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** [3] sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Halollik har sohada o'ziga xos namoyon bo'lib, sud-huquq tizimida ikki yo'nalishda, ya'ni, birinchidan, qonun chizig'idan chiqmaslikda va inson taqdiri bo'yicha qaror qabul qilishda, Prezidentimiz aytganidek, aybdorning o'rniga o'zini qo'yib ish tutishda, o'qituvchi timsolida esa, talaba va o'quvchiga real bilim va tarbiya berishda, davlat xizmatchisi halolligi xalqqa xizmat qilib, rozi qilish, davlat va jamiyat manfaatini bosh qadriyat deb bilishda, tibbiyot xodimidagi halollik bemorga ta'magirlik bilan qaramaslikda, uni davolashni kasb va vijdon amri deb bilishida, ota-ona halolligi esa, farzandni mustaqil hayot kechirishga tayyor, to'g'ri so'z, vijdonli, chuqur mas'uliyatli inson va muayyan kasb-hunar sohibi qilib shakllantirishda o'zi namuna bo'lishida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февральдаги №4947 сонли Фармони
2. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза, 2018 йил 7 декабрь, [http:// газета.uz](http://gazeta.uz).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон.
4. Хақимов З. Т. Олий таълим ислоҳотлари: ютуқлар, муаммолар, ечимлар ва истиқболлари// Республика илмий-амалий анжумани материаллари, 2019 йил 25-26 октябрь. -Б.5-6.
5. <https://lex.uz/docs/-3088008>
6. <https://kun.uz/22006717>